



**“V-XII ASRLARDA O‘ZBEK DAVLATCHILIGI VA IJTIMOIIY-SIYOSIIY,
IQTISODIIY, MADANIY HAYOT "MAVZUSINI O‘QITISHDA
ZAMONAVIIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI”**

*Andijon Davlat Pedagogika Instituti Tarix kafedrası dotsenti, tarix fanlari
nomzodi **Qadirova Nigora Yakubbekovna**
Tarix kafedrası o'qituvchisi **Saliyeva Dilorom***

Annotatsiya. Ushbu maqola V–XII asrlar — O‘zbekiston hududidagi "Birinchi Renessans" davrining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini o‘qitishda innovatsion pedagogik yondashuvlarning o‘rni va ahamiyatini juda beqiyos ekanligi bayon qilingan. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, tarixiy jarayonlarni an’anaviy ma’ruza uslubi bilan o‘qitish bugungi kundagi talablari va talabalarning tahliliy tafakkurini rivojlantirish uchun yetarli emasdir. O‘qituvchi tarix darslarini shunchaki ma’lumotlar yig‘indisi emas, balki "tarixiy rekonstruksiya" jarayoniga aylantirish uchun FSMU, SWOT, "Bumerang", "Keystadi" kabi interfaol texnologiyalarni amaliy tajribalar asosida tahlil qiladi. Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta’lim talabalari ishtirokida o‘tkazilgan pedagogik eksperiment natijalari keltirilgan bo‘lib, ular interfaol metodlar o‘zlashtirish sifatini oshirishi va talabalarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim omil ekanligini isbotlaydi. Shuningdek, maqolada qadimiy shaharlar va iqtisodiy tizimlarning 3D modellaridan foydalanish, tarixiy ongni geografik-fazoviy tafakkur bilan bog‘lash orqali milliy o‘zlikni anglashni kuchaytirish strategiyalari yoritilgan. Maqola tarix o‘qituvchilari, pedagoglar va tadqiqotchilar uchun o‘quv jarayonini qiziqarli samarali tashkil etish bo‘yicha amaliy qo‘llanma vazifasini o‘taydi.



Abstract. In this article, the role and significance of innovative pedagogical approaches in teaching the socio-political, economic, and cultural development of the "First Renaissance" period in the territory of Uzbekistan in the 5th-12th centuries are described. The relevance of the research lies in the fact that teaching historical processes using the traditional lecture method is insufficient for today's requirements and the development of students' analytical thinking. The teacher analyzes interactive technologies such as FSMU, SWOT, "Boomerang," "Case Study" based on practical experience to transform history lessons not just into a collection of data, but into a process of "historical reconstruction." The object of the research is the results of a pedagogical experiment conducted with the participation of students of higher educational institutions, in which it has been proven that interactive methods are an important factor in improving the quality of assimilation and the formation of independent thinking skills in students. The article also highlights strategies for strengthening national identity through the use of 3D models of ancient cities and economic systems, connecting historical consciousness with geospatial thinking. The article serves as a practical guide for history teachers, educators, and researchers on interesting and effective organization of the educational process.

Аннотация. В данной статье описывается роль и значение инновационных педагогических подходов в преподавании социально-политического, экономического и культурного развития периода "Первого Ренессанса" на территории Узбекистана в V-XII веках. Актуальность данного исследования заключается в том, что преподавание исторических процессов традиционным лекционным методом недостаточно для современных требований и развития аналитического мышления студентов. Учитель анализирует интерактивные технологии, такие как FSMU, SWOT, "Бумеранг," "Кейс-стади," на основе практического опыта, чтобы превратить уроки истории не просто в набор данных, а в процесс "исторической реконструкции." Объектом исследования являются результаты педагогического эксперимента,



проведенного с участием студентов высших учебных заведений, которые доказывают, что интерактивные методы повышают качество обучения и являются важным фактором в формировании навыков самостоятельного мышления студентов. Также в статье освещаются стратегии усиления национального самосознания путем использования 3D-моделей древних городов и экономических систем, связывая историческое сознание с геопространственным мышлением. Статья служит практическим руководством для учителей истории, педагогов и исследователей по интересной и эффективной организации учебного процесса.

Kalit so‘zlar: Birinchi Renessans, FSMU, G‘aznaviylar, Keys-stadi, AKT, 3D animatsiyalari, Klaster, Buyuk Ipak yo‘li

Keywords: First Renaissance, FSMU, Ghaznavids, Case study, ICT, 3D animations, Cluster, Great Silk Road

Ключевые слова: Первый Ренессанс, FSMU, Газневиды, Кейс-стади, ИКТ, 3D-анимация, Кластер, Великий Шелковый путь

Kirish. Ushbu maqolada V-XII asrlarda o‘zbek davlatchiligi va ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayot mavzusini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni haqida ma'lumotlar berilgan. Hozirgi kunda talaba yoshlarni dars mashg‘ulotlariga qiziqtirish va ularni yanada ilm olishga undash asosan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning yordamidagina bo‘ladi. Chunki dars mashg‘ulotlari faqat ma'ruza shaklida bo‘laversa talabalar uchun biroz zerikarli bo‘lib qoladi. Shuning uchun ham hozirgi kunda talabalarni tanqidiy fikrlashga va yanada izlanishga undaydigan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ma'qul hisoblanadi. Masalan, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan biri FSMU, SWOT, Venn diagrammasi yoki animatsiyalar bilan darslarni qiziqarli qilib tushuntirish yanada samarali usullardir. Bundan tashqari V-XII asrlarda o‘zbek



davlatchiligida bo‘lgan voqealarni raqamli hikoyachilik orqali tushuntirib berish ham zamonaviy pedagogik texnologiyalardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda ta'lim tizimining asosiy maqsadi ham yoshlarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib ularni fikr-mulohaza qilishga undash, tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va o‘sha o‘rganayotgan sohasiga yanad qiziqishini kuchaytirishdir. O‘zbek davlatchiligi tarixining V–XII asrlar davri — mintaqamizda o‘rta asrlar uyg‘onish davrining shakllanishi, davlatchilik tizimining takomillashuvi va boy madaniy-ma’naviy merosning yaratilishi bilan ahamiyatlidir. Bu davrda Turk xoqonligi, Somoniylar, Qoraxoniylar va G‘aznaviylar kabi qudratli davlatlarning mavjudligi, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlar tarixiy taraqqiyotimizning poydevori hisoblanadi. Hozirgi kunda ta'lim tizimining asosiy maqsadi ham yoshlarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib ularni fikr-mulohaza qilishga undash, tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va o‘sha o‘rganayotgan sohasiga yanad qiziqishini kuchaytirishdir.

O‘zbek davlatchiligi tarixining V–XII asrlar davri — mintaqamizda o‘rta asrlar uyg‘onish davrining shakllanishi, davlatchilik tizimining takomillashuvi va boy madaniy-ma’naviy merosning yaratilishi bilan ahamiyatlidir. Bu davrda Turk xoqonligi, Somoniylar, Qoraxoniylar va G‘aznaviylar kabi qudratli davlatlarning mavjudligi, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlar tarixiy taraqqiyotimizning poydevori hisoblanadi. Ushbu davrni o‘qitish o‘quvchilarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish hamda milliy g‘urur tuyg‘ularini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Biroq, tarixiy voqeliklar, o‘zgaruvchan siyosiy xaritalar va murakkab iqtisodiy munosabatlarni an’anaviy ta’lim usullari bilan tushuntirish ko‘pincha yetarli bo‘lmaydi. Shu bois, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ahamiyati benihoya katta hisoblanadi. Lekin nafaqat bu mavzuni balki, barcha mavzu va fanlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilantalab yoshlarga tushuntirib berish ularda IT savodxonligini ham oshiradi va bu usullar juda samarali usullar hisoblanadi.



Metodologiya va adabiyotlar tahlili. V-XII asrlarda O‘zbekiston hududida shakllangan davlatchilik tizimi, ijtimoiy-siyosiy va madaniy yuksalish jarayonlarini o‘qitish zamonaviy tarix fani va pedagogikasining dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Mazkur tadqiqot ishining metodologik asosi sifatida tizimlilik, tarixaviylik, xolislik va qiyosiy-mantiqiy tahlil tamoyillari tanlab olindi. Tadqiqot jarayonida oliy ta‘lim tizimida tarixiy fanlarni o‘qitishning samaradorligini oshirishga qaratilgan interfaol metodlar va raqamli texnologiyalarning o‘rni empirik va nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston Milliy universiteti Geografiya fakulteti talabalari bilan olib borilgan o‘quv mashg‘ulotlari va ularning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari xizmat qildi. Ma‘lumotlarni yig‘ishda pedagogik kuzatuv, anketa so‘rovnomalari va dars jarayonidagi keys-stadi natijalaridan foydalanildi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, V-XII asrlar davri, ayniqsa "Birinchi Renessans" deb ataluvchi muddat, nafaqat mahalliy, balki jahon sharqshunoslari tomonidan ham keng o‘rganilgan. Akademik Azamat Ziyoning "O‘zbek davlatchiligi tarixi" asarida ushbu davrdagi boshqaruv tizimi — markaziy va mahalliy devonlar faoliyati chuqur tahlil etilgan bo‘lib, bu tarixiy bilimlarni talabalarga yetkazishda tizimli yondashuvni talab etadi. Shuningdek, E.V. Rtveladze va A.S. Sagdullayevlarning tadqiqotlarida bu davrning iqtisodiy-madaniy hayoti, Buyuk Ipak yo‘lining o‘rni va hunarmandchilik taraqqiyoti arxeologik va yozma manbalar asosida yoritilgan. Mazkur manbalar talabalarga nazariy bilim berishda poydevor vazifasini o‘taydi. Biroq, tarixiy bilimlarni ta‘lim oluvchilarga yetkazish metodikasi masalasida R. Ishmuhamedov va M. Saidovlarning pedagogik texnologiyalarga oid ishlarini alohida ta‘kidlash lozim. Ularning yondashuviga ko‘ra, murakkab tarixiy davrlarni o‘qitishda "FSMU", "Klaster" va "Insert" kabi grafik organayzerlardan foydalanish talabalarning mavzuni vizual qabul qilishini bir necha barobarga oshiradi.

Xorijiy tajribada, xususan, “Ag‘darilgan sinf” metodikasi tarixiy shaxslar va ularning siyosiy portretlarini chizishda yuqori natija berishi metodologik jihatdan



asoslab berilgan. Metodologik jihatdan ushbu maqolada asosan sifat tahlili ustuvorlik qiladi. Ya'ni, an'anaviy ma'ruza uslubi bilan interfaol texnologiyalar qo'llanilgan dars jarayonlari o'zaro qiyoslandi. Tadqiqotda qo'llanilgan "Bumerang" texnologiyasi talabalarga V-XII asrlar ma'naviy hayoti — Beruniy, Ibn Sino, Xorazmiy merosini mustaqil o'rganish va guruhda muhokama qilish imkonini berdi. Bu jarayonda talabalar faqatgina axborot qabul qiluvchi emas, balki bilimlarni qayta ishlovchi subyektga aylandi. Shuningdek, AKT vositalaridan foydalangan holda, qadimgi sug'orish tarmoqlari va shaharlarning 3D animatsiyalarda namoyish etish metodikasi geografik-tarixiy tafakkurni shakllantirishda muhim omil sifatida qaraldi. Xulosa qilib aytganda, tadqiqot metodologiyasi tarixiy manbalar tahlili va zamonaviy pedagogik innovatsiyalar sinteziga asoslanadi. Adabiyotlar tahlili esa darsliklardagi nazariy ma'lumotlarni amaliy metodlar bilan boyitish zarurligini tasdiqlaydi. Ushbu yondashuv talabalarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning tarixiy voqelikka nisbatan tanqidiy va tahliliy munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Natija va muhokama. Ushbu tadqiqot jarayonida V-XII asrlar O'zbekiston davlatchiligi va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash natijalari an'anaviy o'qitish usullari bilan qiyosiy tahlil qilindi. Olingan natijalarga ko'ra, talabalarning o'quv materialini o'zlashtirish darajasi va tarixiy voqelikka nisbatan tahliliy yondashuvi sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Xususan, "Klaster" va "FSMU" texnologiyalari qo'llanilganda, talabalar Somoniylar va Qoraxoniylar davridagi davlat boshqaruvi tizimidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlik bilan tizimlashtirishga muvaffaq bo'ldilar. An'anaviy ma'ruza darslarida bu ko'rsatkich ancha past edi. Ayniqsa, Buyuk Ipak yo'lining iqtisodiy ahamiyatini o'rganishda AKT vositalari orqali interfaol xaritalardan foydalanish, talabalarda nafaqat tarixiy, balki geografik fazoviy tafakkurni ham shakllantirdi.



1-rasm. IX-XII asrlarda o'zbek davlatchiligi, ijtimoiy-iqtisodiy hayot

Muhokama qismida shuni ta'kidlash lozimki, V-XII asrlar "Birinchi Renessans" davri bo'lganligi sababli, mavzu ko'plab mavhum va murakkab ijtimoiy-siyosiy atamalarga boy. "Bumerang" texnologiyasi yordamida talabalar Beruniy, Ibn Sino va Xorazmiyning ilmiy merosini kichik guruhlarda tahlil qilganda, ularning fanga bo'lgan qiziqishi va mustaqil ishlash ko'nikmalari ortdi. Bu jarayonda darsning markaziga o'qituvchi emas, balki talaba chiqdi, bu esa ta'limning demokratlashuvidan dalolat beradi. Biroq, zamonaviy metodlarni qo'llashda ayrim muammolar ham ko'zga tashlandi. Masalan, "Keys-stadi" metodini qo'llash jarayonida ba'zi talabalar tarixiy voqelikni zamonaviy dunyoqarash bilan chalkashtirishi, ya'ni o'rta asrlar ijtimoiy munosabatlarini bugungi kun mezonlari bilan baholashi kuzatildi. Bu esa o'qituvchidan dars



jarayonida yo‘naltiruvchi va tahrirlovchi funksiyasini yanada aniqroq bajarishni talab etadi.

1-jadval. An'anaviy va zamonaviy ta'lim usullarining qiyosiy tahlili

№	Baholash mezon	An'anaviy ma'ruza usuli	Zamonaviy inter texnologiyalar
1.	Talaba roli	Passiv tinglovchi	Faol tadqiqotchi
2.	Asosiy vosita	Darslik va ma'ruza matni	AKT , Keys-stadi, FSMU
3.	Bilim olish shakli	Yodlash	Tahlil va tanqidiy fikrlash
4.	O'zlashtirish samarasi	O'rtacha	Yuqori
5.	Dars muhiti	O'qituvchi markazlashgan	Talaba markazlashgan

Yuqoridagi 1- jadval o'qitish uslublaridagi paradigma o'zgarishini statistik va sifat jihatidan ko'rsatadi. V-XII asrlarda o'zbek davlatchiligi va ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotni o'qitishda "Venn diagrammasi" orqali dehqonchilik va chorvachilik xo'jaliklarining o'zaro bog'liqligini o'rganish, talabalarga o'sha davr jamiyatining moddiy asosi qanday shakllanganini chuqur anglashga yordam berdi. Muhokamalar shuni ko'rsatdiki, interfaol metodlar orqali o'tilgan darslarda talabalarning savol berish faolligi bir necha baravarga oshgan. Bu esa darsning interfaolligi va talabalarning mavzuga hissiy bog'langanligini ko'rsatadi.

2-jadval: V-XII asrlar mavzularini o'qitishda pedagogik texnologiyalar matritsasi

№	Tarixiy davr/Mavzu	Qo'llaniladigan texnologiya	Asosiy maqsadi va kutilayotgan natija
----------	---------------------------	------------------------------------	--



1.	Davlat boshqaruvi tizimi	Klaster (Tarmoqlar)	Siyosiy tuzilmani vizual tizimlashtirish
2.	Ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar	SWOT tahlil	Davlatlarning kuchli va zaif tomonlarini baholash
3.	Buyuk ipak yo‘li iqtisodiyoti	Interfaol xaritalar/AKT	Geografik va iqtisodiy bog‘liqlikni tushunish
4.	Buyuk allomalar merosi	Bumerang/ Keys-stadi	Mustaqil izlanish va ilmiy tahlil ko‘nikmasi
5.	Tarixiy voqealiklar tahlili	FSMU texnologiyasi	Mantiqiy xulosa chiqarish va asoslash

Yuqoridagi jadval o‘qituvchiga mavzuning qaysi qismini qaysi metod bilan o‘tish bo‘yicha aniq yo‘nalish beradi. Xulosa qilib aytganda, natijalar zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tarix darslariga joriy etish nafaqat bilim sifatini oshirishini, balki talabalarda milliy o‘zlikni anglash va tarixiy jarayonlarni mantiqiy bog‘lash qobiliyatini rivojlantirishini oshiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, V-XII asrlar kabi murakkab davrlarni o‘qitishda vizuallashtirish va muammoli ta’lim usullari eng samarali vosita hisoblanadi.

Xulosa. V-XII asrlarda O‘zbekiston hududida kechgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni o‘rganish nafaqat tarixiy bilimlar majmuasini, balki milliy davlatchilik asoslarini anglashda ham strategik ahamiyatga ega. Olib borilgan tadqiqotlar va dars jarayonidagi pedagogik tahlillar shuni ko‘rsatadiki,



ushbu murakkab davrni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. "FSMU", "Klaster" va "Keys-stadi" kabi metodlar talabalarning passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga aylanishini ta'minlaydi. Natijada, talaba faqatgina yil, sanalarni yodlamasdan, balki o'sha davrdagi boshqaruv tizimi, "Birinchi Renessans"ning ilm-fan olamidagi o'rni va iqtisodiy munosabatlar mohiyatini tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi.

Tadqiqot xulosalari tasdiqladiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va interfaol metodlar sintezi talabalarda tarixiy ongini shakllantirish bilan birga, ularning mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. V-XII asrlar tarixini o'qitishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish yosh avlodda ajdodlar merosiga nisbatan faxr tuyg'usini uyg'otish va milliy o'zlikni anglashni kuchaytirishning eng samarali yo'lidir. Kelajakda ushbu metodik tavsiyalarni kengaytirish va darsliklar mazmuniga integratsiya qilish oliy ta'lim tizimida tarixiy fanlarni o'qitish samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Qisqacha takliflar. V-XII asrlar davlatchiligi va ijtimoiy hayotini o'qitish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Interfaol metodlarni tizimlashtirish: Har bir dars mavzusiga mos ravishda (siyosiy tarix uchun "Klaster", iqtisodiy jarayonlar uchun "SWOT-tahlil") aniq metodologik xarita ishlab chiqish zarur.

Vizual texnologiyalardan foydalanish: Tarixiy xaritalar, davlat boshqaruvi tuzilmasini aks ettiruvchi sxemalar va 3D animatsiyalar dars jarayoniga muntazam joriy etish orqali talabalar xotirasida tarixiy voqelikni mustahkamlash.



Baholash tizimini yangilash: Faqat yodlangan ma'lumotlarni emas, balki talabning tarixiy jarayonlarni tahlil qila olishi va ularni bugungi kun bilan bog'lay olishini baholovchi test va savollar tizimini shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azamat, Z. (2000). O'zbek davlatchiligi tarixi. Sharq.
2. G'ulomov, S. (2012). Tarix o'qitish metodikasi. O'qituvchi.
3. Ishmuhamedov, R., & Saidov, M. (2008). Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Iste'dod.
4. Karimov, I. A. (2008). Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. Ma'naviyat.
5. Rtveladze, E. V. (2002). Sivilizatsiyalar, davlatlar, madaniyatlar Markaziy Osiyo tarixida. Sharq.
6. Sagdullayev, A. S. (2007). O'zbekiston tarixi: davlatchilik va ijtimoiy tuzum. Akademiya.

Foydalanilgan internet saytlari

7. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. (2024). O'zbekiston davlatchiligi tarixi. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/ensiklopediya>
8. Ta'lim va innovatsiyalar portali. (2025). Tarix fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalar. <https://ziyo.uz/innovatsion-talim-metodlari>
9. Tarixiy-ma'rifiy resurslar markazi. (n.d.). V-XII asrlar Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi. <https://tarix.uz/ozbekiston-tarixi/birinchi-renessans>
10. Ziyonet axborot tarmog'i. (2026). O'rta asrlar O'zbekiston iqtisodiyoti va Buyuk Ipak yo'li. <https://kutubxona.ziyouz.com/oz/book/view/tarixiy-manbalar>